



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-oktabr

578-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-oktabrdagi PF–155-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 493-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi PF–155-son Farmonini va Namangan viloyat hokimining 23 iyuldagi 493-6-0-Q/24-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida davlat nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-oktabrdagi PF–155-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 493-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

2024–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha samaradorlikni oshirish uchun quyidagilar davlat kosmik monitoringining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

yer uchastkalarining o‘zboshimchalik bilan egallab olinishi va bunday yer uchastkalarida bino va inshootlar qurilishi holatlarini aniqlashi;

o‘rmon bilan qoplangan maydonlarning chegaralarini belgilash va ularning holatini monitoring qilishi;

geologiya sohasida yer qa‘ridan o‘zboshimchalik bilan foydalanish, foydali qazilmalar joylashgan maydonlardan asossiz ravishda va boshqa maqsadlarda foydalanish holatlarini aniqlashi;

mavjud chiqindilarni saqlash joylarida belgilangan hududdan tashqariga chiqish holatlarini, yangi paydo bo‘lgan noqonuniy chiqindi zonalarini aniqlashi;

suv omborlarining loyqa oqiziqalar bilan to‘lib borishini, suv sathi rejimini monitoring qilishi; qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanilishini o‘rganish, ekinlarning turlari hamda suv iste‘moli hajmlarini aniqlashi;

quyidagilar:

2024–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida davlat kosmik monitoringini amalga oshirish dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) 1-ilovaga muvofiq;

2024–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining kosmik sohasini rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Dastur doirasida quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi nazarda tutilishi:

suv sathi rejimi monitoringi amalga oshiriladigan suv omborlarining sonini 50 taga yetkazish;

qishloq xo'jaligi ekin yerlari kesimida ekin yerlaridan foydalanishning joriy holatini, ekinlarning turlarini hamda haqiqatda ekin ekilgan maydonlarini to'liq qamrab olish;

yer qa'ridan o'zboshimchalik bilan foydalanish, foydali qazilmalar joylashgan maydonlardan asossiz va boshqa maqsadlarda foydalanish holatlarini aniqlash ishlari bilan respublikaning barcha hududlarini qamrab olish;

o'rmon bilan qoplangan barcha maydonlarning chegaralarini belgilashi;

2025-yil 1-martdan boshlab yer qa'ridan foydalanish bo'yicha masofaviy monitoring va risk-tahlil "Geomonitoring" axborot tizimi hamda SGM platformasi orqali amalga oshirilishi;

"Geomonitoring" axborot tizimini ishlab chiqish, texnik qo'llab-quvvatlash va kelgusida rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hisobidan moliyalashtirilishi;

2024-yil 1-noyabrdan boshlab aero va kosmik suratlar hamda ularning hosilalaridan foydalanish va tarqatish quyidagi tartibda amalga oshirilishi:

fazoviy o'lcham aniqligi 0,5-1 metr/pikselgacha bo'lgan suratlar va ularning hosilalari suratga olingan vaqtdan boshlab 5 kun ichida "Xizmat doirasida foydalanish uchun" grifi asosida, 5 kun o'tgandan keyin esa ochiq;

fazoviy o'lcham aniqligi 1 metr/piksel va undan ortiq bo'lgan suratlar va ularning hosilalari o'ta muhim, rejimli va harbiy ob'ektlarni aks ettirishidan qat'i nazar nazorat ko'rigidan o'tkazilmaydi va ochiq foydalanilishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq "O'zbekkosmos" agentligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibiyati hamda Vazirlar Mahkamasining moliyalashtirish manbai aniq belgilanmagan buyurtmalarini bajarishda, buyurtmalar bilan bog'liq xarajatlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Davlat kosmik monitoringini amalga oshirish dasturi doirasida ajratilgan mablag'larning iqtisod qilingan qismidan qayta taqsimlash orqali moliyalashtirishga ruxsat berilganligi;

bunda, Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda, ushbu buyurtmalar bilan bog'liq xarajatlar buyurtma beruvchi organning yoki kosmik monitoring amalga oshirilayotgan sohaga mas'ul bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat organining budjetdan tashqari mablag'lari va (yoki) korxonalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov